

INNOVATSION TA'LIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI

Gadayeva Mohigul Muxamedovna

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada yangi fikr, yangi g`oya, innivatsiyaga tayangan holda ta`lim berish ehtiyoji bigungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanligi, innovatsion g`oyalar bilan sug`orilgan fanlarni o`qitish hozirgi zamon talabiga aylanayotgani va fanlarni o`qitishda yngilik kiritish, xorijiy tajribalardan unumli foydalanish masalalari tavsiflangan.

В статье рассмотрена вопрос инновации в образовании как залог развития будущего, потому что, любое эффективное нововведение даёт значительный импульс усовершенствованию

The article considers the issue of innovation in education as a guarantee of the development of the future, because, any effective innovation gives a significant impetus to improvement .

Kalit so`zlar: Innovatsiya, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, kreativ, raqobatbardosh kadr, tashabbus ko`rsatish, kommunikativ faoliyat, globallashuv.

Mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ta`lim tizimini tubdan isloh qilishga alohida e`tibor qaratilmoqda. “Yurtimizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan ,innovatsion rivojlanish yo`li tanlanmoqda”.”Nega ana shunday yo`l tanlanmoqda?”-degan savolga O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaati (2017 yil 22-dekabr) da quyidagicha javob bergan edilar.”... Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g`oya, innivatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya-buyuk kelajak degani. Biz buuk kelajagimizni bugundan boshlaydigan bo`lsak, uni aynan innovatsion g`oyalar , innovatsion yondashuvlar asosida boshlashimiz kerak”.

O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimida ham innovatsion g`oyalar bilan sug`orilgan fanlarni o`qitish hozirgi zamon talabiga aylanmoqda. Fanlarni o`qitishda yangilik kiritish, xorijiy tajribalardan unumli foydalanish, xalqaro baholash dasturlari bo`yicha xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS) ni tashkil etishga katta e`tibor berilmoqda.

Endilikda oliy ta`limdagi mavjud talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatish bilan kutilgan natijaga erishib bo`lmaydi. Bunday usul talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko`rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon bermaydi. Shuning uchun ham yangi fikr, yangi g`oya, innovatsiyaga tayangan holda ta`lim berish ehtiyoji bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylandi.

Buning uchun hozirgi zamon o`qituvchisi nimalarga e`tibor berishlari kerak:

- birinchidan, ular oliy ta`lim o`quv reja va dasturlarida ko`rsatilgan mavzularni zamon talablari darajasida zaruriy yangiliklar bilan boyitib, talabalar qalbi va ongiga singdirishlari;

- ikkinchidan, talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga undaydigan interfaol ta`lim usullari va ilg`or pedagoik texnologiyalardan foydalana olish malakalarga ega bo`lishlari;

- uchinchidan, talabalarining hamkorlikdagi va faol ishtirokini ta`minlaydigan, tashabbuskorlik, kreativlikka undaydigan, talabalarining bilim va kommunikativ faoliyatini tashkil etishga imkon beradigan ta`lim usullarini tanlay bilishlari;

- to`rtinchidan, “ Nega o`qitamiz?”, “Nimani o`qitamiz?”, “ Qanday o`qitamiz?”-dagan savollardan ko`ra, endilikda “Qanday innovatsion ta`lim usullaridan foydalanib, yanada samarali va natijali o`qitish mumkin?”- degan savolga javob topishimiz kerak.

Negaki, hozirgi globallashtirish sharoitida sodir bo`layotgan innovatsion jrayonlarda oliy ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun, yangi axborotni o`zlashtiradigan va o`zlashtirgan bilimlarni o`zlari tomonidan baholashga qodir bo`lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Bunday shaxslarga ta`lim berish uchun mutxassis o`z fanini puxta va mukammal bilishi bilan birga hozirgi axborot zamonida faniga oid jahon miqyosidagi yangiliklardan xabardor bo`lishi handa uni talabalarga yetkazishning innovatsion usullarini egallagan bo`lishi kerak.

Shuning uchun ham oliy ta`limda o`quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida innovatsion g`oyalar kiritilmas ekan, ta`lim jarayonidan ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi.

Har bir darsda yangi g`oya, innovatsion texnologiyani qo`llash uchun talabalar oldindan izlanishi, ilg`or tajribalarni o`rganishi va o`zi ishlab chiqqan hamda samarali natijadorlikka ega bo`lgan usullarni qo`llay olishi zarur.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning tub mohiyati- talabalarga zamonaviy bilimlarni berish orqali ularni jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlar bo`lib yetishishiga tayyorlashdan iborat. Har bir texnologiyada bo`lgani singari innovatsion texnologiya ham o`zining mezonlariga ega: konseptuallik, tizimlilik, samaradorlik, natijadorlik, o`zi olgan bilimlarini amaliyotda qo`llay olish. Bu mezonlarni amalga oshirish, talabalarda innovatsion g`oyalarni shakllantirish usullarini o`qituvchining o`zi belgilaydi. Masalah: ko`zlangan maqsadga erishish uchun darsda AKT, jadval va sxemalar, tarqatma materiallar, tarixiy xaritalar, kontur xaritalar, videoroliklar, multimedialar, badiiy adabiyotlar, tarixiy manbalar, mavzuli filmlar, ilg`or pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish mumkin.

O`zbekiston xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida va “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun loyihasi (Yangi tahriri) da ham innovatsion ta`limni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilgan. O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun loyihasi (yangi tahriri)” ning 5- moddasida: “...Ta`lim tashkilotlarida innovatsion faoliyat va ta`lim dasturlarini innovatsion texnologiyalari yordamida amalga oshirishni qo`llab-quvvatash” ko`rsatilgan.

Ko`rinib turibdiki, innvatsion ta`lim berish bugungi kunda talabalarning asosiy faoliyat turi bo`lib, o`qituvchilarning bu boradagi tajribasini o`rganish va targ`ib qilish ham ta`lim sifati hamda samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb eadi. Zero, innovatsion ta`lim-buyuk kelajak poydevori bo`lib, uni o`rganish va o`rgatish oliy ta`lim o`qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga murojaati. 20.12.2022.
2. O`.Q.Tolipov, D.I.Ro`ziyeva. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”-T.: 2019
3. Xoliqov.A .”Pedagogik mahorat”-T.:2011